

SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR VA UNING USULLARI.

Ibragimova Nilufar Yuldashovna

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi dotsenti, sotsiologiya fanlar nomzodi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sotsiologik tadqiqotlar va uning usullari shuningdek, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish jarayonida sifatli ma’lumotlar to‘plash uchun sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazishning kuzatish, eksperiment, hujjatlarni tahlil qilish, so‘rov usullari orqali dastlabki va ikkilamchi ma’lumotlar olish imkoniga ega bo‘lish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: sotsiologik tadqiqotlar: razvedka (zond, pilotaj), tavsiflovchi va analitik; kuzatish, tajriba, qiyoslash, tarixiy metodlar; sotsiologik metodlar: kuzatish, eksperiment, hujjatlarni tahlil qilish, so‘rov, intervyu, anketa.

Аннотация: В данной статье рассматриваются социологическое исследование и его методы, а также возможность получения первичных и вторичных данных путем наблюдения, эксперимента, анализа документов, опросных методов проведения социологического исследования для сбора качественных данных в процессе проведения социологического исследования.

Ключевые слова: социологическое исследование: разведывательное (зондовое, пилотажное), описательно-аналитическое; наблюдение, опыт, сравнение, исторические методы; социологические методы: наблюдение, эксперимент, анализ документов, опрос, интервью, анкетирование.

Annotation: This article discusses sociological research and its methods, as well as the possibility of obtaining primary and secondary data through observation, experiment, document analysis, survey methods for conducting sociological research to collect qualitative data in the process of conducting sociological research.

Key words: sociological research: reconnaissance (probe, pilotage), descriptive-analytical; observation, experience, comparison, historical methods; sociological methods: observation, experiment, document analysis, survey, interview, questioning.

Sotsiologik bilimlar aniq, jiddiy, ob‘ektiv, ilmiy bo‘lishi uchun bilimlarni hosil qiluvchi vositalar ya’ni metodlardan to‘g‘ri tanlash talab qilinadi. Sotsiologiyaning qiziqarli bo‘limlaridan biri bu amaliy sotsiologiya bo‘lib, unda jamiyat muammolari emperik tadqiq qilish yo‘li bilan o‘rganiladi. Dastlab sotsiologiyaning 4 ta metodi asosida: *kuzatish, tajriba, qiyoslash, tarixiy* usullar orqali ijtimoiy muammolar o‘rganiladi. O.Kontning sotsiologiyaning asosiy metodi sifatida social faktlarni kuzatish metodi orqali insonlarning hulq-atvorini kuzatadi [1;27]. O.Kont sotsiologiyani tabiiy-ilmiy metodlarga asoslangan social fizika deb bilganini ko‘rish mumkin. Lekin ko‘pgina sotsiolog olimlarning fikricha, u sotsiologiyada tabiiy-ilmiy

usullarni tadbiq eta olmaganligi haqida aytib, ushbu jarayonni Kont sotsiologiyasining paradoksi sifatida qayd etadi.

Sotsiologiyada yangi bilimlar olish social faktlarni bunday o'rganish fanning yangi bilimlar hosil qilishi uchun etarli bo'lmay qoldi. Natijada fanni takomillashtirish zarurati tug'iladi. Bu emperik sotsiologik tadqiqotlar bo'ldi.

Sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlardan farqli empirik usullardan keng foydalanadi. Masalan, *anketalar, intervyular, kuzatish, eksperiment, statistik ma'lumotlar va hujjatlarni tahlil qilish* [2;12].

Sotsiologik tadqiqot - bu yagona maqsad bilan bog'liq bo'lgan mantiqiy izchil metodologik, metodik va tashkiliy-texnik protseduralarni amaliy qo'llash orqali ishonchli ma'lumot olish jarayoni [3; 479].

Sotsiologik tadqiqotlar: *razvedka (zond, pilotaj), tavsiflovchi va analitik* uchta asosiy turlarga bo'linadi.

Razvedkali tadqiqotlar cheklangan muammolarni hal qilish imkonini beruvchi sotsiologik tahlilning eng oddiy shaklidir. Darhaqiqat, ushbu turni qo'llashda asboblarni (uslubiy hujjatlarni) tekshirish davomida anketalar, so'rovnomalar blankalari, tarqatma materiallar va hujjatlarni o'rganishdan iborat bo'ladi. Bunday o'rganish dasturi, asboblarga to'plami kabi soddalashtiriladi. So'ralgan jamlanmalar kichik - 20 dan 100 gacha bo'lgan respondentlar o'rtasida o'tkaziladi. Razvedka tadqiqotlari asosan, qoidaga ko'ra, muammoni chuqur o'rganishdan oldin amalga oshiriladi. Uning davomida maqsadlar, farazlar, vazifalar, savollar va ularni shakllantirish ko'rsatiladi.

Tavsiflovchi tadqiqotlar sotsiologik tahlilning ancha murakkab turi hisoblanib, uning yordamida empirik ma'lumotlar o'rganiladi, bu o'rganilayotgan ijtimoiy hodisaning nisbatan yaxlit ko'rinishini beradi.

Tavsiflovchi tadqiqotlarda empirik ma'lumotlarni yig'ishning bir yoki bir nechta usullari qo'llanilishi mumkin. Usullarning yig'indisi ma'lumotlarning ishonchligi va to'liqligini oshiradi, chuqurroq xulosalar chiqarish va tavsiyalarni asoslash imkonini beradi.

Sotsiologik tadqiqotning eng jiddiy turi **analitik tadqiqotlardir**. U nafaqat o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonlarning elementlarini tavsiflaydi, balki uning asosida yotgan sabablarini ham aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ma'lum bir hodisani oqlaydigan ko'plab omillarning yig'indisini ham o'rganadi.

Analitik tadqiqotlar to'liq izlanish va tavsifiy tadqiqotlar bo'lib, uning davomida o'rganilayotgan ijtimoiy hodisa yoki jarayonning ayrim elementlari haqida dastlabki tasavvurni beradigan ma'lumotlar to'planadi.

Sotsiologik tadqiqotda uchta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) tadqiqot dasturi va usullarini ishlab chiqish;
- 2) empirik tadqiqot o'tkazish;
- 3) ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, xulosalar chiqarish, hisobot tuzish.

Ushbu bosqichlarning barchasi juda muhim va alohida e'tibor talab qiladi. Empirik tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari, mijozni qiziqtirgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotda aks ettiriladi. Tadqiqot natijalari bo'yicha hisobotning tuzilishi ko'pincha asosiy tushunchalarni operativlashtirish mantig'iga mos keladi, ammo sotsiolog ushbu hujjatni tayyorlab, sotsiologik ma'lumotlarni asta-sekin ko'rsatkichlarga qisqartirish yo'lidan boradi. Hisobotdagi bo'limlar soni odatda tadqiqot dasturida tuzilgan farazlar soniga to'g'ri keladi. Dastlab, asosiy gipoteza bo'yicha hisobot beriladi. Hisobotning birinchi qismida o'rganilayotgan ijtimoiy muammoning dolzarbligining qisqacha mantiqiy asoslari, tadqiqot parametrlarining tavsifi (saylanma, ma'lumot to'plash usullari, ishtirokchilar soni, vaqt va b) mavjud. Ikkinchi bo'limda o'rganish ob'ekti ijtimoiy-demografik xususiyatlariga (jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqei va boshqalar) ko'ra tavsiflanadi. Keyingi bo'limlar dasturda ilgari surilgan farazlarga javob izlashni o'z ichiga oladi. Ayrim hollarda, hisobotning bo'limlari paragraflarga bo'linishi mumkin. Har bir paragrafni xulosalar bilan yakunlash tavsiya etiladi. Hisobotning xulosasi eng yaxshi umumiy xulosalarga asoslangan amaliy tavsiyalar shaklida taqdim etiladi. Hisobot 30-40 yoki 200-300 sahifada taqdim etilishi ham mumkin. Bu o'rganishning materiali, maqsad va vazifalari miqdoriga bog'liq. Hisobot ilovasida uslubiy va uslubiy tadqiqot hujjatlari mavjud: dastur, reja, vositalar, ko'rsatmalar va boshqalar. Bundan tashqari ilovada ko'pincha jadvallar, grafiklar, individual fikrlar, hisobotga kiritilmagan ochiq savollarga javoblar mavjud bo'ladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan asosiy usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Kuzatish - bu ob'ektiv voqelik hodisalarini maqsadli idrok etish orqali tadqiqotchi o'rganilayotgan ob'ektlarning tashqi tomonlari, holati va munosabatlari haqida bilim oladi.

Kuzatish ma'lumotlarini aniqlash shakllari va usullari har xil bo'lishi mumkin (blanka varaqlar yoki kuzatuv kundaligi, fotosurat, kino yoki tv va boshqa texnik vositalar).

Eksperiment - bu muayan gipotezalarni sinab ko'rish maqsadida natijalarni amaliyotga bevosita kirish imkoniyatiga ega bo'lgan usul.

Uni amalga oshirish uchun ma'lum bir eksperimental guruhni tanlab, uni noodatiy eksperimental vaziyatga joylashtirish orqali ularning qiziqish xususiyatlarining o'zgarish yo'nalishini, hajmi va barqarorligini kuzatishimiz mumkin.

Hujjatlarni tahlil qilish birlamchi ma'lumotlarni to'plashning keng qo'llaniladigan va samarali usullaridan biridir.

Tadqiqotning maqsadi hujjatda tahlil qilish uchun muhim bo'lgan mavzu mavjudligini ko'rsatadigan ko'rsatkichlarni izlash va matn ma'lumotlarining

mazmunini ochib berishdir. Hujjatlarni o'rganish muayyan hodisa va jarayonlarning o'zgarishi va rivojlanishi tendentsiyasi va dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

So'rov – bu muayan guruh odamlari o'rtasida savollar berish orqali dastlabki ma'lumotlarni to'plash usulidir.

So'rov ikki ko'rinishda olib boriladi:

anketa;

intervyu.

Anketa – (*frantsuzcha -tergov*) – intervyurer tomonidan anketa varag'ida ko'rsatilgan holda mustaqil to'ldiriladigan savollar varag'idan iborat.

Respondentlar tadqiqot ob'ekti sifatida qaraladi.

Intervyu – bu muayan reja asosida olib boriladigan suhbat bo'lib, intervyurer va respondent o'rtasida to'g'ridan to'g'ri munosabatni o'z ichiga olgan va uning javoblari intervyurer yordamchisi tomonidan harakatli usulda qayd qilingan usul.

Umuman olganda, sotsiologik tadqiqotlar turli xil muammolarni, jamoadagi munosabatlar va ularning ko'lami, odamlarning turli guruhlaridagi bir xil darajada muhim muammolarini hal qilishda yordam berishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Громов И.А., Мзцкевич А.Ю., Семенов В.А. Западная теоретическая социология – М., 1996. с 27.
2. Волкова Л.В. Методика проведения социологического исследования. Методическое пособие. – М.: Издательский центр РГУ нефти и газа имени И.М. Губкина, 2014. – 12 с.
3. Краткий словарь по социологии/ Под общ. ред. Д.М. Гвишиани, Н. И. Лапина; Сост. Э.М. Коржева, Н.Ф. Наумова. - Политиздат, 1988. - 479с.